

DENGIZ NILUFARLARI (CRINOIDEA) SINFI HAQIDA

Mamadiminova Muslimabonu Ravshanbek qizi

ADPI Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi 102-guruh talabasi

Annotatsiya. Dengiz nilufarlari dengiz yulduzlar va dengiz kirpilariga mansub echinodermalardir. Ular o‘zining nozik va patga o‘xshash ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Dengiz ekotizmlarida muhim ahamiyatga ega. Toshlangan dengiz nilufari ko‘plab dengiz konlarida keng tarqalgan va qadimgi dengiz ekotizmlari haqida qimmatli ma’lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Dengiz nilufari, ninaterililar, erkin, o‘troq, pinnula, aboral, ambulakral.

Dengiz nilufar (Crinoidea)-ninerililar sinfi. Ko‘rinishi gulag o‘xshaydi, erkin (poyachalarsiz) yoki o‘troq (poyachali) hayot kechiradi. Hozirgi kunda dengiz nilufarlarini 700 ta turi ma’lum, ulardan 550 turi poyachasizlar kenja sinfiga, qolganini esa poyachalilar tashkil etadi. Poyachali dengiz nilufarlari odatda suvning ancha chuqur - 10 km gacha chuqurlikda uchraydi. Poyachasizlar esa tropik mintaqalardagi sayoz dengizlarda, ayniqsa, keng tarqalgan.



Hozirda ko‘pchilik dengiz nilufarlari poyachasizdir. Ular maxsus mo‘ylovlar yordamida suv tubiga yopishib oladi yoki erkin suzib yuradi. Dengiz nilufarlarining



tanasi kosachaga o‘xshaydi. Kosachadan beshta qo‘li boshlanadi. Qo‘llar kosacha yaqinida shoxlanganligi tufayli ularning soni o‘nta bo‘lib qoladi. Ayrim nilufarlarning qo‘li ketma-ket bir necha marta shoxlangan bo‘ladi. Poyachasi bir necha qator bo‘lib joylashgan, o‘zaro harakatchan qo‘shilgan ohak bog‘imlaridan iborat. Ayrim bo‘gimlarda harakatchan va bo‘gimlarga bo‘lingan mo‘ylovlar ham mavjud. Pastki mo‘ylovlar suv ostiga yopishish vazifasini bajaradi. Poyasiz nilufarlarda bunday mo‘ylovlar aboral tomonida joylashgan markaziy plastinkadan chiqadi. Aboral tomonining o‘rtasida og‘iz teshigi joylashgan. O‘g‘iz teshigidan qo‘llar tomonga ambulakral egatlar chiqadi. Egatlar ham qo‘llar singari ikkiga ajralib, qo‘llar bo‘ylab ketadi. Nilufarning ikki yonida pinnulalar deb ataladigan o‘simtalar bo‘ladi. Ambulakral egatlar pinnulalarda ham bo‘ladi. Egatlar ichida juda ko‘p so‘rg‘ichsiz ambulakral paypaslagichlar joylashgan. Paypaslagichlar nafas olish va tuyg‘u vazifasini bajaradi.



Dengiz nilufari dengiz ekotizmlarida muhim ro‘l o‘ynaydi, bu orqali bentos (suv qarida) jamoalarning xilma xilligiga hissa qo‘shadi va ba‘zi dengiz organizmlari uchun oziq ovqat manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Dengiz nilufarlari o‘ziga xos va nafis ko‘rinishga ega ajoyib dengiz hayvonlaridir. Ularning o‘ziga xos xususiyati xususan, toshlangan dengiz nilufarlari ko‘plab dengiz konlarida keng tarqalgan va qadimgi dengiz ekotizmlari haqida qimmatli ma‘lumot beradi. Shu sababli olimlar va tabiat ixlosmandlari uchun qiziqarli o‘rganish mavzusiga aylangan.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA IJTIMOIIY TARMOQLAR RO‘YHATI

- 1.”Umurtqasizlar zoologiyasi” O.Mavlonov,SH.Xurramov,X.Eshova. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2006-yil.
- 2.uz.m.wikipedia.org
- 3.O‘zME.Birinchi jild.Toshkent,2000-yil.

Research Science and Innovation House

